



**JIZZAX VILOYAT I STATISTIKA
BOSHQARMASI**



JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

*2024 - YIL YANVAR - FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*



Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2024- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha viloyat korxonalari tomonidan 3 266,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023 - yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 140,2 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi.

**B**


Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

**C**

Ishlab chiqaradigan
sanoat



**D**

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash

**E**

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 28,1% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 4,7% ga oshgani kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024 - yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2023- yil

B

0,8 %

2024- yil

B

0,5 %

Yanvar-fevral

2024-yil yanvar-fevral

Tumanlar miqyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. soʻmda

| Tumanlar nomi | 2023- yil yanvar-fevral | 2024- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Gʻallaorol tumani | 172,1 | 853,4 | 681,3 |
| Sharof Rashidov tumani | 78,3 | 2 013,6 | 1 935,3 |
| Zomin tumani | 493,8 | 324,7 | -169,1 |
| Jizzax shahri | 601,3 | 11 528,7 | 10 927,4 |
| Zafarobod tumani | 88,0 | 122,9 | 34,9 |

Jami sanoat ishlab chiqarishi togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga toʻgʻri kelib 76,5 % ni tashkil etdi.

9,6 %


2023- yil

730,5 %

2024- yil

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, fizik hajmi indeksi % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024 - yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 178,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3% ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar-fevral

96,2 %

2024-yil yanvar-fevral

97,3 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida o'rtta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 65,7 % (39,0 %) ni, o'rtta-quyi texnologiyali – 8,1 % (11,4 %) va quyi texnologiyalisi - 23,5 % (45,8 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 63,5 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 10,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,2 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 282,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2023- yilning yanvar-fevral oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 232,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti



Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2023- yil yanvar-fevral | 2024- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|-----------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Paxta tolasi, t. | 6 549,6 | 6 356,0 | -193,6 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 5 192,7 | 2 659,8 | -2 532,9 |
| Paxta chigiti, t. | 9 814,5 | 9 347,0 | -467,5 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 1 022,3 | 1 515,0 | 492,7 |
| Paxta linti, t. | 579,3 | 599,0 | 19,7 |
| Trikotaj polotnolar, t. | 277,0 | 110,5 | -166,5 |

2024 - yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (51,2 % kamaygan), 6,4 ming tonna paxta tolasi (97,0 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 9,3 ming tonna paxta chigiti 101,6 % ga) oshgani kuzatildi.


Yumshoq bug‘doy va spelta uni**51,2 %****Paxta tolasi, t.****97,0 %***O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023 - yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 133,4 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 71,9 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023 - yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 58,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 - yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 160,8 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 223,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 145,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 156,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,002 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 6,5 % ni tashkil etgan. 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 50,8 martani va ishlab chiqarish hajmi 2,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023 - yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 80,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 101,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 452,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 123,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %, fizik hajm indeksi 91,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 76,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 137,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 3,1 martani hamda ishlab chiqarish hajmi 88,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 149,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 93,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 52,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,6 % tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 41,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,9 % ini) tashkil etdi. 2024 - yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,7 % ga oshishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023 - yil yanvar-fevral | 2024 - yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|--|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 19 637,7 | 39 610,1 | 19 972,4 |
| Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 20 028,3 | 23 015,8 | 2 987,5 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2023 - yil yanvar-fevral | 2024 - yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|--|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm, | 4 792,2 | 8 622,3 | 3 830,1 |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 3 736,6 | 1 973,0 | -1 763,6 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 20,5 % ga oshishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 301,2 % ga oshishi kuzatildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2504 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 716 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,6 % i) Jizzax shahriga, 352 tasi (14,1 %) Sharof Rashidov tumaniga, 277 tasi (11,1 %) G'allaorol tumaniga, 238 tasi (9,5 %) Zomin tumaniga va 155 tasi (6,2 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

